

Markaziy Osiyodagi suv muammolari yechimi

Baxodir Baydullaevich Kuybakov
Zulfiyaxon Burhonjon qizi To'xtasinova
Almalyk branch of Tashkent State Technical University

Annotatsiya: Suv tirik mavjudotlar uchun asosiy ehtiyojdir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishonchli suv manbai tabyatga bog'liqdir. Hozirgi kunda mamlakatimiz suv tanqisligi muammosiga duch kelmoqda. Suvdan nooqilona va samarasiz foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining buzilishi va ko'plab sub'ektiv va ob'ektiv faktorlar natijasida suv yetishmasligi bu esa o'z navbatida Orol muammosini keltirib chiqarganligi suvdan tejamkor ishlatish muhim.

Kalit so'zlar: suv, qishloq xo'jaligi, Orol, cho'l

Solution of water problems in Central Asia

Bakhodir Baidullaevich Kuybakov
Zulfiyakhan Burhonjan kizi Tokhtasinova
Almalyk branch of Tashkent State Technical University

Abstract: Water is a basic need for living things. Uzbekistan's agriculture depends on nature for a reliable source of water. Currently, our country is facing the problem of water shortage. It is important to use water sparingly as a result of unreasonable and inefficient use of water, violation of the reclamation condition of irrigated lands, and a lack of water as a result of many subjective and objective factors, which in turn caused the problem of the island.

Keywords: water, agriculture, island, desert

Orol dengizingin qurigan maydonida himoya o'rmonzorlari va "yashil qoplama"lar barpo etish, cho'l sharoitiga chidamli va ozuqa o'simliklari ko'chatlarini yetishtirish, dengizning qurigan qismini daraxtzor va butazorlarga aylantirish maqsadga muvofiq.

Cho'l yaylovlarining xosildorligini va ozuqa sifatini keskin yaxshilovchi cho'l ozuqabop o'simliklari texnika yordamida ekish ishlarini bajarish lozim.

Suv - hayot manbai. Uning qiymati dunyo globallashuvi jarayonida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zero, suvsiz hayot yo'q. Suv tiriklik evolyutsiyasiga ham, atrof-muhit, iqlim o'zgarishlariga ham million yillardan buyon beqiyos ta'sir

ko'rsatib kelayotgan obi hayotdir. Shunday ekan, insoniyat uni ko'z qorachig'idek asrashi shart.

Hozirgi paytda suvga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga, O'zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Har yili dunyo bo'y lab 12 mln ga, 1 daqiqada esa 23 ga yer cho'llanadi. Hozir yer yuzining 5 foizi cho'llangan, bu 3 mlrddan ziyod odamni oziq-ovqat tanqisligida qoldirish mumkin. Dunyo bo'y lab yerlarning doymiy ravishda tanazzulga uchrashi tobora kengayib borayotganini e'tiborga olib, BMT Bosh assambleyasi 2010 yil yanvaridan 2020 yil dekabrigacha bo'lgan davrni BMTning cho'llanishga qarshi kurashish 10 eilligi deb e'lon qilgan bu ish yuqori darajada avalga oshirildi va xozirgi vaqtida ham davom ettirilmoqda.

Suvdan nooqilona va samarasiz foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining buzilishi va ko'plab sub'ektiv va ob'ektiv faktorlar natijasida suv etishmasligi bu esa o'z navbatida Orol muammosini keltirib chiqardi.

Bu muammo butun mintaqaga uchun muhimdir, chunki Orol bo'yidagi ekologik xavfsizlik odamlar xayotiga, sog 'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shularni inobatga olib, so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloq qilinmoqda. 2030 yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, Orol dengizining qurigan maydonida himoya o'rmonzorlari tashkil etish Xukumatimiz oldiga qo'yilgan dolzarb masalalardir.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish maqsadida aniq chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Orol dengizining qurigan maydonida himoya o'rmonzorlari va "yashil qoplama"lar barpo etish, cho'l sharoitiga chidamli va ozuqa o'simliklari ko'chatlarini yetishtirish, dengizning qurigan qismini daraxtzor va butazorlarga aylantirish maqsadga muvofiq.

Buning uchun cho'l yaylovlarining xosildorligini va ozuqa sifatini keskin yaxshilovchi cho'l ozuqabop o'simliklarini texnika yordamida ekish ishlarini bajarish lozim. Chunki cho'l ozuqabop o'simliklar qurg'oqchilil iqlimda o'sishga va uzoq yillar davomida uzluksiz yuqori hosil toplash imkoniyatiga ega. Ushbu cho'l

ozuqabop o'simliklarning urug'chilagini tashkil qilish va kerakli miqdorda ularning urug'larini etishtirish o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Cho'l ozuqabop o'simliklarining quyidagi turlari mavjud: saksavul, cherkez, cho'g'on, teresken, izen, quyrovuq, shuvoq. Bu o'simliklarni ko'paytirish uchun urug' yig'ishtirish ishlarini mexanizatsiyalash zarur.

Muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi PQ-4204 sonli "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradurligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qayd etilgan bo'lib, cho'llanish muammolarini hal etishda asos boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farmonov, E., Berdimuratov, P., Kuybakov, B., Mirzaeva, S., & Djumamuratov, D. (2023). Improvement of the state of degraded pastures by mechanized sowing of shrubs and semibrubs. In E3S Web of Conferences (Vol. 434, p. 03011). EDP Sciences.
2. Куйбаков, Б. Б. (2022). К вопросу о влиянии экологии и здоровье населения. Science and Education, 3(6), 224-231.